

7. FORS-MAJOR.

- 7.1. Fors-majior holatlari (yong'in, toshqin, zilzila, harbiy harakatlar, epidemiya) yuzaga kelganligi sababli TARAFLAR SHARTNOMA bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.
- 7.2. Fors-majior natijasida SHARTNOMA bo'yicha majburiyatlarni bajarish inkonsizligi yuzaga kelgan TARAF 3 (uch) ish kuni ichida vakolatli organ hujjatlari ilova qilingan holda, ushbu holatlarning paydo bo'lishi va bekor qilinishi to'g'risida boshqa tomonga sabar berishga majburdir.
- 7.3. Agar fors-majior holatlari TARAFLARDan birining 30 (o'ttiz) kundan ko'proq vaqt davomida o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan bo'lsa, unda boshqa TARAF bitimni amal qilish muddati tugashidan oldin bekor qilishga haqlidir. Shu bilan birga, SHARTNOMANI muddatidan oldin bekor qilish sababli TARAFLAR tomonidan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash to'g'risidagi da'volar taqdim etilishi mumkin emas.

8. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA SHARTNOMANI BEKOR QILISH TARTIBI.

- 8.1. SHARTNOMA amal qilish muddati 05.01.2022 yildan 31.12.2022 yilgacha. SHARTNOMA imzolanganidan keyin tomonlarda ro'yxatdan o'tgandan so'ng, byudjet tashkilotlarida esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligida ro'yxatdan o'tganidan kuchga kiradi.
- 8.2. Agar SHARTNOMANI imzolash va BUYURTMACHIGA ro'yxatdan o'tkazish uchun taqdim etilgan kundan boshlab 20 kalendar kun o'tgan bo'lsa, SHARTNOMA imzolannagan va IJROCHIGA qaytarilgan bo'lsa, IJROCHI SHARTNOMANI haqiqiy emas (tuzilmagan) deb hisoblash huquqini o'zida saqlab qoladi. Belgilangan muddat tugagandan so'ng imzolangan SHARTNOMA qaytarilgan taqdirda, IJROCHI SHARTNOMAViy munosabatlarni yangilash huquqiga ega.
- 8.3. TARAFLAR tomonidan SHARTNOMAning bandlari bajarilmaganligi sababli, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qonunlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha SHARTNOMA bekor qilinishi mumkin.
- 8.4. Ikki TARAF ham kutilgan bekor qilish kundan 10 (o'n) ish kun oldin boshqa tomonga yozma ravishda xabardor qilib, bitimni bir tomonlama bekor qilishga haqlidir.
- 8.5. TARAFLAR bank va pochta rekvizitlari o'zgarishi to'g'risida bir-biriga zudlik bilan xabar berish majburiyatini oladilar.

9. BOSHQA SHARTLAR.

- 9.1. TARAFLAR tomonidan SHARTNOMA imzolanganidan so'ng tuzilgan ilova, bayonnoma, qo'shimcha bitim, boshqa hujjatlar, agar ular tarafdarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan bo'lsa, faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga muvofiq rasmiylashtirilishi va ro'yxatdan o'tkazilishi sharti bilan amal qiladi va SHARTNOMAning ajralmas qismi hisoblanadi.
- 9.2. TARAFLAR ushbu bitim, unga qo'shimchalar va qo'shimcha SHARTNOMALAR, hisob-fakturalar va bajarilgan ishlar dalolatnomalari, shuningdek uni rasmiylashtirish, o'zgartirish yoki tugatish uchun tegishli bo'lgan boshqa hujjatlar bo'yicha belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan qo'lyozuvi va faksimil imzolarning, elektron raqamli imzolarning teng qonuniy kuchini tan olishadi.
- 9.3. SHARTNOMA bilan tartibga solinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.
- 9.4. XIZMATLAR hajmi o'zgariganda, shu jumladan yangi shaxsiy kompyuterlar, serverlar va ofis uskunalari ishga tushirilganda, TARAFLAR imzolagan SHARTNOMAGA qo'shimchalarga o'zgartirishlar kiritiladi yoki yangi qo'shimchalar yoki qo'shimcha SHARTNOMALAR tuziladi.
- 9.5. SHARTNOMA 2 (ikki) nusxada. Tomonlarning har biri uchun 1 (bitta) nusxada, davlat tilida tuzilgan, ikkala nusxasi ham bir xil qonuniy kuchga ega.

10. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI, BANK REKVIZITLARI VA IMZOLARI.

BUYURTMACHI

Қорағзи вилоятилик мақомадара  
 Қолниқ шафқатқонаси  
 Manzil: Қоғна муҳими Қурғи осман кўчи 28 ўй  
 Tel: 6253-31853  
 STIR: 207331804 OKED: 91511  
 IIC: 100021860332237073261054001  
 Moliya Vazirligi G'aznachiligi  
 STIR: 261122313 MFO: 00014  
 SHIV:

Bank nomi: Ўзбекистон Банки Тошкент КККК  
 Бош вазир: *К. Касимов*  
 Раҳбар



IJROCHI

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash  
 vazirligi "IT-MED" MCHJ

Manzil: Tashkent sh. Shayxontoxur tumani,  
 Navoi ko'chasi 4-uy  
 Tel/faks: (99871) 2037071  
 e-mail: itmed@ssy.uz  
 IIR: 20208000800957658001  
 STIR: 305926021, OKED: 62020, MFO: 00432  
 Bank nomi: "Uzsanootqirishbank" ATB  
 Yashnobod filiali



*Қорғазил қўли*